



Termiz davlat universitetida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi 17-son qarori bilan "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'naliishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi nizomining 15-bandiga muvofiq "Yurisprudensiya" ta'lim yo'naliishi bo'yicha

**Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish**

1. O'zbekiston Respublikasi sud tizimidagi so'nggi islohotlardan nimalarni bilasiz?
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida belgilangan yangi o'zgarishlarni tahlil qiling?
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga qanday o'zgartirishlar kiritilganligini tahlil qiling?
4. Advokatlarning huquqiy maqomi Konstitutsiyaviy jihatdan kafolatlanganligini tahlil qiling?
5. Elektron hukumat tushunchasiga ta'rif bering?
6. Davlat xizmatlari markazlari faoliyatidagi islohotlarni tahlil qiling?
7. Elektron davlat xizmatlarining ahamiyatini tahlil qiling?
8. Konstitutsiyaviy huquqning yetakchi huquq sohasi sifatidagi o'rnini yoritib bering.
9. O'zbekistonda vijdon va e'tiqod erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari deganda nimani tushunasiz?
10. Konstitutsiyaviy huquq fanining boshqa huquqiy fanlar bilan aloqasini huquqiy jihatdan ko'rsatib bering?
11. Konstitutsiya muqaddimasining xususiyatlari hamda konstitutsiya normalarida aks etishini yoritib bering?
12. O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv shaklini tushuntirib bering?
13. O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishning konstitutsiyaviy asoslarini tushuntirib bering?

14. Demokratiyaning umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi deganda nimani tushunasiz?
15. Fuqarolikka ega bo'lish va yo'qotish asoslarini tushuntirib bering.?
16. Xususiy mulkning daxlsizligi va davlat tomonidan himoya qilinishini tushuntirib bering?
17. Saylov tizimining konstitutsiyaviy va huquqiy asoslariga tavsif bering?
18. Fuqarolar huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlarini yoriting?
19. Sud orqali huquq va erkinliklarni himoya qilish deganda nimani tushunasiz?
20. Shaxsiy huquq va erkinliklar tushunchasiga atroflicha to'xtaling?
21. Konstitutsiyaviy huquqning jamiyat va davlat qurulishi sohasidagi ahamiyatini huquqiy jihatdan tavsiflab bering?
22. Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari masalasini yoritib bering?
23. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati nimadan iborat?
24. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli", deb yozilgan normani qanday tushunasiz?
25. Konstitutsiyada belgilangan shaxsning erkin harakatlanish huquqini tushuntirib bering.
26. Amaldagi Konstitutsiyada belgilangan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi", degan normaning mazmun-mohiyatini tushuntiring.
27. Siyosiy huquq va erkinliklar tushunchasini yoritib bering. Siyosiy huquq va erkinliklarning qanday ko'rinishlari mavjud?
28. Hokimiyatlar bo'linish prinsipining mohiyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga tayangan holda yoritib bering.?
29. Shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish huquqining mazmuni yoritib bering?

30. Referendumda ishtirok etish huquqi deganda nimani tushunasiz?
31. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qanday organ?
32. Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibini yoritib bering?
33. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday normativ-huquqiy xujjatlar chiqaradi?
34. Qanday holatlarda Qonunchilik palatasi va Senati tarqatib yuborilishi mumkin?
35. Qonunni qabul qilish jarayonini yoritib bering?
36. Pedogogning maqomi to‘g‘risida qonun qabul qilindi. Ushbu qonun mazmuni haqida ma’lumotga egamisiz?
37. Oila sudlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Bu haqida nimalarni bilasiz?
38. Inson huquqlari borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
39. Hukumat tizimida so‘nggi yillarda qanday o‘zgarishlar amalga oshirildi?
40. Konstitutsianing yangi tahrirda qabul qilinishi ehtiyoj bormidi? Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qanday yangi normalar kiritildi?
41. Davlat xizmati va davlat xizmatichi bilan bog‘liq o‘zgarishlardan xabardormisiz?
42. Kodifikatsiyalash haqida bilasizmi? Uning ahamiyatini tushuntirib bering.
43. Yerga bo‘lgan mulk huquqi haqida ma’lumot bering. So‘nggi yillarda bu borada qanday o‘zgarishlar bo‘ldi?
44. Iqlim o‘zgarishlari yuz berayotgan bugungi kunda davlatning mas’uliyati nimadan iborat? Fuqarolar vazifasi haqida nima deya olasiz?
45. Gender tenglik deganda nimani tushunasiz?
46. Xalqaro miqyosda yuz berayotgan hodisalarни huquqiy jihatdan qanday baholaysiz?
47. Sun’iy intellekt bilan bog‘liq munosabatlar milliy qonunchiligidan qanday tartibga solingan?
48. Mualliflik huquqining himoya qilinishi borasida so‘nggi yillarda qanday o‘zgarishlar qilindi?
49. Advokaturaga oid o‘zgarishlar haqida ma’lumot bering.

50. Biznes va tadbirkorlik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida nimalarni bilasiz?
51. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi cheklanishi lozim. Bu bo'yicha qanday islohotlar qilindi?
52. Diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi haqida nimalarni bilasiz?
53. Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan dunyoviy davlat deganda nimani tushunasiz?
54. Parlament nazorati subyektlarini tushuntirib bering.
55. Parlament nazorati obyektini tushuntirib bering.
56. Prokuror nazorati hujjati sifatida ogohlantiruvni tushuntirib bering.
57. Prokuror nazorati hujjati sifatida taqdimnomani tushuntirib bering.
58. Prokuror nazorati hujjati sifatida protestni tushuntirib bering.
59. Prokuror nazorati hujjati sifatida qarorni tushuntirib bering.
60. Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplarini tushuntirib bering.

**Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarining mavjudligi.**

**Savollar**

1. Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasiga ta'rif bering, Qanday normative-huquqiy hujjatlar mavjud?
2. Norasmiy sharhlash tushunchasiga ta'rif bering?
3. Huquq normalarini sharhlash tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
4. Huquqiy davlat deganda nima tushuniladi?
5. Huquqiy pretsedent tushunchasini yoritib bering?
6. Sanksiya nima va uning turlarini tahlil qiling?
7. Dispozitsiya nima va unga ta'rif bering?
8. Huquqbazarlikning belgilarini tahlil qiling?
9. Legal sharhlash deganda qanday sharhlashni tushunasiz?
10. O'zbekiston qanday huquq oilasiga mansubligini tahlil qiling?
11. O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilish shaklini tahlil qiling?
12. Qonunchilik tashabbusi huquqini nazariy jihatdan tahlil qiling?
13. Davlat funksiyalarini tahlil qiling?

- 14.Kazual sharhlash deganda qanday sharhlashni tushunasiz?
- 15.Normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi deganda nimani tushunasiz?
- 16.Rasmiy va norasmiy sharhlashni farqli tomonlarini tahlil qiling?
- 17.Huquq layoqati tushunchasini tahlil qiling?
- 18.Muomala layoqati tushunchasini tahlil qiling?
- 19.Fuqarolik jamiyati tushunchasiga ta’rif bering?
- 20.Tavsiflovchi dispozitsiya nima?
- 21.Huquqbazarlik tushunchasiga ta’rif bering?
- 22.Saylash va saylanish huquqini tahlil qiling?
- 23.Referendum nima va uni o’tkazish tartibini tahlil qiling?
- 24.Shaxsiy huquq erkinliklar tuhsunchasiga ta’rif bering?
- 25.Siyosiy huquqlarni tahlil qiling?
- 26.O’zbekiston Respublikasi sud tizimini tahlil qiling?
- 27.Konstitutsianing Asosiy qonun sifatida e’tirof etilishiga sabab nima?
- 28.O’zbekiston Respublikasi nomidan kimlar ish olib borishini tahlil qiling?
- 29.Hokimiyatlar bo‘linish prinsipini yoritib bering?
- 30.Qonun qabul qilish jarayonini tahlil qiling?
- 31.Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibini tahlil qiling?
- 32.Davlat boshqaruvi shakli tushunchasini tahlil qiling?
- 33.Qonunlar orqaga qaytish kuchiga egami?
- 34.Normativ-huquqiy hujjatlar turlarini tahlil qiling?
- 35.Muomala layoqati va huquq layoqati farqli jihatlarini tahlil qiling?
- 36.Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda ishlarni ko‘rishda sud tarkibi e’lon qilinadi. Sud tarkibi deganda nimani tushunasiz. Ishni ko‘rishni boshlagan sudya ta’tilga chiqqanida sud ishining taqdiri nima bo‘ladi.
- 37.Fuqarolik protsessual muomala layoqati deganda nimani tushunasiz?  
Muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan ariza berilishing oqibatlari.
- 38.Fuqarolik sud ishlarini yuritish bilan bog‘liq sud xarajatlarini taqsimlash tartibini tushuntiring.

- 39.Fuqarolik sud ishlarini yuritishda ashyoviy dalillarni saqlash va qaytarib berish tartibini tushuntiring.
- 40.Fuqarolik sud ishlarini yuritishda shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik deganda nima tushuniladi?
- 41.Da'vogarning tanlovi bo'yicha sudlovga tegishlilik qoidalarini tushuntiring.
- 42.Fuqarolik sud ishlarini yuritishda birgalikda ishtirok etish
- 43.Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual huquqiy vorislik nima?
- 44.Fuqarolik sud ishlarini yuritishda tez buziladigan ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish tartibini tushuntiring.
- 45.Fuqarolik sud ishlarini yuritishda qo'shimcha va qayta ekspertizaning farqini tushuntiring.
- 46.Qanday hollarda ishga qabul qilish g'ayriqonuniy ravishda rad etilgan deb hisoblanadi?
- 47.Kimlar bilan ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmaydi?
- 48.Mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy asoslarini aytib bering.
- 49.Mehnat shartnomasini xodimning tashabbusi bilan bekor qilishni tushuntirib bering.
- 50.Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish asoslarini sanab bering.
- 51.Mehnat shartnomasi qanday hollarda taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lмаган holatlar bo'yicha bekor qilinadi?
- 52.Ishga tiklash huquqiga kimlar ega?
- 53.Xodim qanday hollarda ishdan chetlashtiriladi?
- 54.Qaysi mehnat nizolari bevosita tuman (shahar) sudlarida ko'rishi lozim?
- 55.Mehnat nizolari bo'yicha qanday da'vo muddatlari qo'llaniladi?
- 56.Kimlar mehnat nizolarini ko'rishi so'rab sudga murojaat qilish huquqiga ega?
- 57.Ish beruvchi tashabbusi bilan homilador ayollar bilan mehnat shartnomasini bekor qilishda qanday kafolatlarga rioya qilinishi lozim?

58.Yetkazilgan zarar uchun xodim qaysi hollarda ish beruvchi oldida to‘liq moddiy javobgar bo‘ladi?

59.Jamoa kelishuvining mazmuni va tuzilishi haqida ma’lumot bering?

60.Mehnat shartnomasining rekvizitlari nima?

**Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o’qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o’z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatları)**

#### Savollar

1. Yurist kasb etikasi deganda nimani tushunasiz?
2. Huquqshunos uchun qanday axloqiy sifatlar muhim hisoblanadi?
3. Yurist imiji qanday bo‘lishi kerak?
4. SWOT tahlilning avzalliklari nimada?
5. SWOT va PEST tahlillarni o‘zaro farqini tahlil qiling?
6. Taym-menejment bo‘yicha qanday tavsiyalar bera olasiz?
7. Mantiqiy fikrlashning asosiy talablarini aytib bering?
8. Shaxs o‘zini lider deb baholashi uchun qanday ko’nikmalarga ega bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?
9. Omma oldida nutq so‘zlashda nimalarga e’tibor qaratish lozim?
- 10.Lider va rahbar o‘rtasida qanday farqlar mavjud?
- 11.Kreativlik nima va uning yurist faoliyatidagi ahamiyati qanday?
- 12.“Soft skills” ning kasb faoliyatidagi ahamiyati nimada?
- 13.“Soft skills” va “Hard skills”ning o‘zaro farqli jihatlarini aytib bering?
- 14.Maqsad qo‘yish rivojlanishga qanchalik ta’sir qiladi deb o‘ylaysiz?
- 15.Qanday vaqt oraliq vaqt hisoblanadi?
- 16.Siz oraliq vaqtlardan qanchalik unumli foydalanasiz va bu qanday ahamiyat kasb etadi deb o‘ylaysiz?
- 17.Tashabbuskorlik qobiliyati huquqshunoslarga qanchalik darajada muhim deb o‘ylaysiz?
- 18.Karyera nima va uning shaxs hayotida ahamiyati qanday?
- 19.Muvaffaqiyatli karyera uchun qanday tavsiyalaringiz bor?

- 20.Nutq so‘zlashda nimalarga e’tibor qaratish lozim?
- 21.Siz o‘zingizda qanday qobiliyatlar bor deb bilasiz?
- 22.Vaqtni boshqarish nimaga kerak?
- 23.Huquqshunos kasbida kitobxonlikning o‘rni va ahamiyati qanday?
- 24.Muvaffaqiyatga erishishda mehnat va harakatning ahamiyati qay darajada deb baholaysiz?
- 25.Kreativlik nima va uning yurist faoliyatidagi ahamiyati qanday?
- 26.Maqsadga erishishda “100 foiz qoidasi” qanday qo‘llaniladi?
- 27.O‘z- o‘zini tekshirish va baholash deganda nimani tushunasiz?
- 28.Lider inson qanday jihatlarga ega bo‘lishi kerak?
- 29.Ma’suliyatilik kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati nimada?
- 30.Nutq sifatiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
- 31.Prezentatsiya tayyorlashda nimalarga e’tibor qaratish lozim?
- 32.Prezentatsiya tayyorlashda yo‘l qo‘yiladigan xatolar?
- 33.SWOT tahlilni tushuntirib bering?
- 34.Tartib-intizom kasbiy rivojlanishga qay darajada ta’sir qiladi deb o‘ylaysiz?
- 35.Kichik rejalarни amalga oshirishda “Uch Harvard savoli” metodi qanday samara beradi?
- 36.Nima uchun to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak?
- 37.Rezyume tuzishdagi qanday xatolardan ochish tavsiya etiladi?
- 38.Prezentatsiyalarning qanday turlari va shakllari bor?
- 39.Prezentatsiyaga tayyorlanishni nimadan boshlash kerak?
- 40.Prezentatsiyaga qiziqarli nom qanday tanlanadi?
- 41.Huquq sohasida ta’sirchan nutqning, notiqlikning o‘rni va ahamiyati qanday?
- 42.Prezentatsiya muvaffaqiyatining uch omilini yoritib bering.
- 43.Mutaxassislarning taym-menejment bo‘yicha qanday muhim tavsiyalari bor?
- 44.Xulosa chiqarish qanday turlariga ajratiladi? Misol keltirib izohlab bering.
- 45.Isbotlash qanday elementlardan tashkil topgan? Misol keltirib izohlab bering.
- 46.To‘g‘ri qaror qabul qilishni shakllantirishning metodlarini yoritib bering.
- 47.Reputatsiya (obro‘) tushunchasining mohiyati va turlarini yoritib bering.

48. Imidj, shaxsiy imidj tushunchalari, ularning mohiyatini yoritib bering.
49. O‘z imidji ustida ishlashning ahamiyati nimada?
50. Odamlarga yoqish san’atining oltita qoidasini yoritib bering.
51. Maqsad va orzuning farqli jihatlari:
52. “Uch Harvard savoli” texnikasi:
53. 100 foiz qoidasini qanday qo‘llash mumkin?
54. Mantiqiy fikrlashning asosiy talablari:
55. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari:
56. Shaxsiy PEST tahlil nima uchun kerak?
57. Yurist mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib borishi bilan qanday ko‘nikmalarga ega bo‘ladi?
58. Rezyume nima va u nima uchun kerak?
59. Huquqshunos rezyumesini tuzish uchun qanday tavsiyalar mavjud?
60. CV nima?

**Bakalavriat ta’lim yo’nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko’rsatish)**  
**Savollar**

1. Taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra mehnat shartnomasini bekor qilish qanday holatlarni nazarda tutadi?
2. Jinoiy jazo turlarini sanab bering?
3. Sud xarajatlari va turlari?
4. Qonun bo‘yicha vorislikda ikkinchi navbatdagi vorislar kimlar bo‘ladi?
5. Sinov muddati nima va u kimlarga qo‘llanilmaydi?
6. Jinoyat tarkibiy elementlarini sanab bering va tahlil qiling?
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati vakolatlarini sanab bering?
8. Jinoyat subyektini tahlil qiling?
9. Intizomiy jazo choralarini sanab bering?
10. Kimlar sudda vakil bo‘la olmaydi?
11. Jinoyatda ishtirokchilik shakllarini tahlil qiling?
12. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi va turlari?

- 13.Jinoyat ishtirokchilari turlarini tahlil qiling?
- 14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlarini sanab bering?
- 15.Bitim tushunchasi va turlari?
- 16.Ekspertiza va uning turlarini tushuntirib bering?
- 17.Kimlar qonunchilik tashabbusi huquqiga ega?
- 18.Normativ-huquqiy hujjatlar turlarini yuridik kuchi jihatidan bayon eting?
- 19.Huquq layoqati va muomala layoqati haqida nimalar bilasiz?
- 20.Ishga qabul qilish qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
- 21.Jinoyat tarkibining subyektiv tomon belgisini tahlil qiling?
- 22.Sudlanganlik holati va uning olib tashlanishi va tugallanishi?
- 23.Merosning ochilishi hamda meros ochilish joyini tahlil qiling?
- 24.Pudrat shartnomasi va uning turlari?
- 25.O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi vakolatlarini sanab bering?
- 26.Qonunchilikda xodimlarga qanday ijtimoiy ta’tillar belgilangan?
- 27.Moddiy tarkibli, formal tarkibli va kesik tarkibli jinoyatlarni tahlil qiling?
- 28.Vasiyatnama tuzish va un o‘zgartirish tartibini tahlil qiling?
- 29.Huquq normalarini sharhlash va uning turlarini tahlil qiling?
- 30.Sudda vakil bo‘la olmaydigan shaxslar kimlar?
- 31.Murdani eksgumatsiya qilishni tahlil qiling?
- 32.Jinoyat protsessida qanday ehtiyyot choralari turlari mavjud?
- 33.Huquq normasining tarkibiy qismi sifatida gepotiza, dispozitsiya hamda sanksiyani tushuntirib bering?
- 34.Nikoh shartnomasi mazmunini ochib bering?
- 35.Rasmiy hamda norasmiy sharhlashni tahlil qiling?
- 36.Diskretsiyaning cheklanishi prinsipini tushuntirib bering.
- 37.Budgetning qanday turlari bor?
- 38.Jinoyatning obyektiv tomoni deganda nimani tushunasiz?
- 39.Umumiylariga qaysi sudlar kiradi?
- 40.Prokuratura tizimi haqida ma’lumot bering.

41. Huquqiy munosabatlar tushunchasiga ta’rif bering va ularga misollar keltiring.
42. Huquqiy munosabatlar asosida yuzaga keladigan subyektiv huquq va yuridik majburiyat tushunchalariga ta’rif bering va amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
43. Huquqbazarlik subyektiv tomonining zaruriy belgisini va uning tarkibiy elementlarini tushuntirib bering.
44. Faol huquqiy xulq-atvor nima? Amaliy misollar bilan tushuntirib bering.
45. Nojo‘ya ish ko‘rinishidagi huquqbazarlik qaysi turdagি huquqbazarliklarni qamrab oladi. Ularning har biri haqida bat afsil ma’lumot bering.
46. Huquqbazarlik tushunchasiga ta’rif bering va uning asosiy belgilari haqida fikr yuriting.
47. Huquqiy munosabat subyektlari elementlarini bat afsil yoritib bering.
48. Huquq tizimi va qonunchilik tizimi tushunchalarini tahlil qilish orqali ularning farqli jihatlarini tushuntirib bering.
49. Moddiy huquq va protsessual huquqning o‘zaro nisbatini yoritib bering.
50. Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishning bir turi b o‘lgan inkorparatsiya haqida ma’lumot bering va uning tizimlashtirishning boshqa turlaridan farqli jihatlarini aytib bering.
51. Huquqbazarlikning belgilarini ochib bering.
52. Davlatning asosiy va qo‘srimcha (yordamchi) belgilarini ajratib ko‘rsating va ular asosida davlat tushunchasining umumiyl tavsifini bering.
53. Dispozitsiya tushunchasi, turlari va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib bering. Turlari bo‘yicha qonunchilikdan misollar keltiring.
54. Ijtimoiy normalar va huquq o‘rtasidagi o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlarni tahlil eting.
55. Ijtimoiy munosabatlar tushunchasi va ularni normativ tartibga solishning obyektiv zaruriyatini tushuntiring.
56. Unitar, federativ va konfederativ davlat shakllari o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiling va amaliy misollar asosida tavsiflang.

57. Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning turlarini yuridik kuchi jihatidan muhokama qiling.
58. Qonun ijodkorligi jarayonining tushunchasi, prinsiplari va bosqichlarini tahlil qiling.
59. Qonunchilikdagi kolliziyalar; tushunchasi, sabablari va bartaraf etish yo'llarini muhokama qiling.
60. Davlat boshqaruvining shakli sifatida monarxiyaning o'ziga xos xususiyatlari va turlarini tahlil qiling hamda misollar keltiring.

Kafedra mudiri

Ma'sul kotib



D.Xolmirzayev

N.Achilov